



QONUN TILINING HUQUQIY TERMINLARGA TA’SIRI

Qurbonova E’zoza Shuhrat qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti v.b. dotsenti,

GulDU doktoranti

ezozasabirova118@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qonun tili va yuridik terminologiya munosbati tahlil qilingan. Bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlar tilida qo‘llanayotgan yurisprudensiyaga oid terminologik birliklarning qo‘llanishi bilan bog‘liq bahsli o‘rinlar tahlil qilingan, bu orqali mavjud muammolar yoritilib, mazkur masalaga doir yechim taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: yuridik terminologiya, qonun tili, yurisprudensiya, normativ-huquqiy hujjatlar, nutq uslublari.

Аннотация. В статье анализируется соотношение юридического языка и юридической терминологии. Проанализированы спорные моменты, связанные с использованием терминологических единиц юриспруденции, используемых сегодня в языке нормативных правовых документов, тем самым выветив имеющиеся проблемы и предложив пути решения данного вопроса.

Ключевые слова: юридическая терминология, юридический язык, юриспруденция, нормативные правовые документы, стили речи.

Abstract. The article analyzes the relationship between the language of law and legal terminology. The controversial points related to the use of terminological units of jurisprudence used in the language of regulatory legal documents today are analyzed, thereby highlighting existing problems and proposing solutions to this issue.

Keywords: legal terminology, legal language, jurisprudence, regulatory legal documents, speech styles.

Kirish.

So‘nggi vaqtlarda yurisprudensiya va tilshunoslik sohalari oldiga qabul qilinayotgan qonunlar sifati masalasi qo‘yilmoqda. Chunki til qonunchilik texnikasi unsurlaridan biri sanaladi. Zero, qonunchilik texnikasi qonun ijodkorligi amaliyoti va tamoyillariga asoslanadi. Qonun hujjatlari matnini mukammal tuzish, bu orqali qonun qabul qilivchilarning fikrini to‘liq va aniq qamrab olishga erishish, huquqiy materialning sodda, tushunarli bo‘lishi, qo‘shimcha savollarga o‘rin qolidirilmaligi, qonunchilik tizimining mushtarakligini ta’minlash va bir-birini inkor qilishiga yo‘l qo‘ymaslik kabilar qonunchilik texnikasini tashkil etadi. “Jahon

tilshunosligi va huquqshunosligida qonun tili bir nechta termin bilan yuritiladi: qonun tili, qonun qabul qiluvchilar tili, ish yuritish tili, davlat tili, rasmiy til va hokazo” [6; 105-114]. Aynan “qonun tili” jumlasining qo‘llanishi uning qonun ishlab chiqish texnikasi elementi ekanligi bilan izohlanadi. Umuman olganda, yuqorida sanalgan terminlar ko‘p o‘rinda sinonim birliklar sifatida qo‘llanaveradi. Ular orasidagi o‘ziga xos “chegara” me‘yoriy va yuridik hujjatlarning hammasi ham qonun bo‘la olmasligida namoyon bo‘ladi. Bunday hujjatlar uchun “ish yuritish tili”, “yuridik hujjatlar tili” kabi terminologik birikmalarni qo‘llash o‘rinliroq. Nazarimizda, bu jumlar tahlil qilayotganimiz – qonun tilidan kengroq, uni ham o‘z ichiga oladigan tushunchalarni ifodalaydi. Istiqldan keyin qonun tiliga ta’sir qiluvchi ish yuritish tiliga qo‘yilgan talablar ham o‘zgardi. Manbalarda ish yuritish tili sifatida quyidagilar qayd etiladi: “Hujjatlar matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatleri hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi, undagi o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta’minlanadi” [1; 18]. Hujjatlar tilida ot turkumiga oid so‘zlarning miqdoran ko‘pligi, fe‘l bilan ifodalanuvchi birliklarning ham uning otga yaqin turi – harakat nomi bilan ifodalanishi ham bunday matnlarning o‘ziga xosligidan dalolat beradi. Sanalgan xususiyatlar qonun tiliga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Tadqiqotlar tahlili

Bir guruh tadqiqotchilar nutq uslublarining o‘ziga xosligini belgilashda leksik-frazeologik birliklar asosiy o‘rin tutishini, qisman sintaktik jihatlar ham ishtirok etishini qayd etadilar [9; 107-111]. Qonun tilining huquqiy terminlarga ta’siri masalasida gap borar ekan, biz ham leksik birliklar tahliliga ko‘proq e’tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qonun tili bevosita huquq va tilshunoslik fanlari hamkorligi, o‘zaro ta’siri mahsuli ekanligini ta’kidlash lozim. Yuridik hujjatlar, qaror, farmon va farmoyishlar singari qonunlarning matnida ham yuridik terminlar salmoqli qismni tashkil etadi. Yuridik terminlar aksariyat qonunlarning shakllantirilishida umumiylik xususiyatiga ega bo‘ladi, deyishimiz mumkin. Deylik, o‘simliklar karantini haqidagi qonunda botanika, biologiya sohalariga doir leksik birliklar qonunning shu sohalarga taalluqli bo‘lganligi uchungina qo‘llanadi. Aksincha, huquqiy terminlar bunday qonunlarda matnning uslubini, o‘ziga xosligini belgilab beradi. Umuman, dunyo tilshunosligida qonun tili leksikasi, grammatikasini tartibga soluvchi, o‘ziga xos tizim ekanligini dalillovchi qator tadqiqotlar amalga oshirildi [3]. O‘zbek yuridik terminologiyasi va qonunlar tili mudom yangilanishda va o‘zgarishda ekan, yuridik soha terminlari va qonun matni yaratish sohasida yangicha yondashuvlarga ehtiyoj sezila boshladi. Sh.Ko‘chimovning “Qonun tili lingvistikasi” ilmiy risolasi (2022) qonun tili va yuridik sohaga doir matnlarning leksik-semnatik, morfologik, sintaktik xususiyatlari, bu sohadagi me’yorda til va tarjima munosabatlarining tartibga solishda, mavjud bo‘shliqni to‘ldirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilganligini ta’kidlash lozim.

“Qonun – davlat hokimiyatining oliy vakillik organi tomonidan yoki bevosita xalqning xohish-irodasiga ko‘ra (masalan, referendum o‘tkazish yo‘li bilan) qabul qilingan va qoida tariqasida, eng muhim va barqaror muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalardan iborat bo‘lgan huquqiy hujjat, yuridik hujjat” [8; 611]. Iqtibosdan ma’lum

bo‘ladiki, qonun, birinchi navbatda, huquqiy hodisa sifatida qaraladi. Demak, qonun tilining huquqiy terminlarga ta’siri shubhasiz Jumladan, qonun tiliga qo‘yiladigan talablar huquqiy terminlar uchun ham birday amal qilishida ham buni ko‘rishimiz mumkin. Qonun tili talablari shaklan turli manbalarda turlicha keltirilsa-da, ularning mohiyati baribir mushtarak ekanligini qayd etish lozim. Masalan, elektron yuridik lug‘atda qonun tili “badiiylik xususiyatidan xolilik, soddalik, aniqlik xususiyatlariga egalik” [<https://huquqiyportal.uz/dictionary> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.01.2025.] kabilar bilan bog‘lanadi. Shuningdek, lug‘atda qonun matnini tayyorlashda sinonim terminlardan foydalanmaslik tavsiya etiladi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda qonunchilik texnikasi, qonun tili, shuningdek, yuridik terminologiya bo‘yicha maxsus ilmiy yo‘nalish shakllanganligini e’tirof etish mumkin. Ana shu yo‘nalishning zabardast vakillaridan biri bo‘lgan Sh.Ko‘chimov qonunchilik tili va uslubini takomillashtirish yo‘nalishidagi asosiy jihatlar sifatida quyidagilarni ajratadi:

“1) qonun tili o‘zbek tilida bo‘lishi va shu tilning grammatik qonun-qoidalariga bo‘ysunishi;

2) o‘ziga xos leksik tizimga egalik;

3) so‘z o‘zlashtirishda biryoqlamalikdan saqlanish;

4) sintaktik qurilishida darak va sodda yoyiq gaplarning ustunligi, murakkab sintaktik tizim va oborotlarga tez-tez murojaat qilinishi;

5) qonunning to‘g‘ri nomlanishi” [4; 6-13] kabilar.

Ta’kidlanganidek, har ikki talab mohiyatan mushtarakdir. Qonun tilining sanalgan talablari bevosita terminlarga, xususan, yuridik terminologiyaga ham ta’sir qiladi. Boshqacha aytganda, “qonun tili terminlashgan til bo‘lib, unda ko‘plab terminlar ishlatiladi. Qonunshunos qonun matnini tuzayotganida oddiy so‘zlarga nisbatan mumkin qadar terminlarni ko‘proq ishlatishga harakat qiladi” [5; 54]. Ammo qonun matnini tayyorlashda terminlardan foydalanishda muayyan me‘yorlar mavjudligini ham unutmash kerak. Mukammal qonun va me‘yoriy hujjatlarni yaratishda terminlarning xususiyatlaridan to‘liq xabardorlik talab etiladi. Bunda termin yaratish, undan foydalanishning umumiy mezonlaridan tashqari aynan qonun loyihalari tayyorlashda qo‘llanadigan terminlar istifodasi uchun asoslar ham ajratilgan.

Namunalar va natijalar

Qonun matnlarida qo‘llanadigan terminlar uchun qo‘yliladigan talablar dunyo huquqshunosligi va tilshunosligida samarali tadqiq qilingan. Jumladan, bir guruh rus huquqshunos va tilshunoslari qonun matnlarida terminlardan foydalanishning alohida xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratadilar: “a) huquqiy tushunchani aniq ifodalovchi terminlardan foydalanish; b) terminlarning barcha uchun tushunarli, sodda bo‘lishi; d) arxaik va aksincha, yangilik bo‘yog‘i bo‘lgan terminlarni qo‘llamaslik; e) terminologik birliklar barqarorligi va muntazamligiga amal qilish; f) stilistik jihatdan terminlarni to‘g‘ri qo‘llash; g) abbreviaturalardan kamroq foydalanish yoki izohi bilan berish” [2; 60-61]. Qonun tilida mavjud bu kabi talablar huquqiy-me‘yoriy hujjatlar va qonun matnlarining asosini tashkil etuvchi yuridik terminologiya taraqqiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, albatta. Masalan, qonun tilida

qo‘llanadigan terminlarning sodda va tushunarli bo‘lishi talabi yuridik terminlarning ham shunday xususiyatlarga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu, birinchidan, yuridik terminlar, ular asosida yaratiladigan huquqiy hujjatlar, qonunlarning inson hayotiga bevosita aloqador ekanligi bilan ham izohlanadi. Zero, “qonun davlat oliy vakillik organlarining eng yuqori kuchga ega bo‘lgan hujjatidir. Qonunning normativligi unda ifodalangan davlat irodasining qat’iyligi, ustunligi va oliyligi bilan chambarchas bog‘liqligidadir. Aynan shu irodaning imperativ mazmuni qonun vositasi bilan umumiy yurish-turish va xulq-atvor mezonlarini belgilaydi” [7; 235]. Boshqacha aytganda, jamiyatning har bir a’zosi qonun va unga asosan yaratilgan me’yoriy hujjatlar asosida yashaydi. Shu sababli qonunlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar matnu aholining katta qismi uchun tushunarli bo‘lishi asosiy talablardandir.

Yuridik terminlarning huquqiy tushunchani aniq ifodalashi bilan bog‘liq bo‘lgan mezonlar qonun tili talabi bilan ham shakllanadi. Qonun matnidagi bo‘shliqlar, noaniqliklar “qonunni aylanib o‘tish”ga sabab bo‘ladi. Shu sababli qonunlarda terminlar ifodalovchi tushunchalar matndagi mujmalliklarga sabab bo‘lmasligi lozim. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni (2016)ning 8-moddasida shunday qism mavjud:

“Agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ichki ishlar organlari fuqaroning sha’ni, qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro‘sigga putur yetkazadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas” (<https://lex.uz/acts/-3027843> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.01.2025).

Mazkur matn qonun tili qoidalari asosida shakllantirilganligi unda qo‘llangan terminlar, shuningdek, matnning sintaktik qurilishidan ma’lum. Ammo unda qo‘llangan “*agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa*” jumlasini biroz mulohazatalab ekanligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Chunki fuqaroning sha’ni, qadr-qimmat, ishchanlik obro‘sigga putur yetkazuvchi, shaxsiy hayotiga doir ma’lumotlarni oshkor etish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra ham taqiqlanadi. Konstitutsiyaning boshqa qonunlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi hisobga olinganda (<https://lex.uz/docs/-6445145> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.01.2025), yuqorida qayd etilgan jumlaning qonunga kiritilishi mantiqan noo‘rin hisoblanadi, nazarimizda. Fikrimizni eski tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasidan keltirilgan quyidagi iqtibos bilan dalillaymiz. Chunki “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun aynan shu konstitutsiya asosida qabul qilingan:

“Har kim o‘z sha’ni va obro‘sigga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega” (<https://lex.uz/docs/-20596?ONDATE=09.02.2021%2001> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.01.2025).

Konstitutsiyamizning yangi tahririda inson sha’ni, qadr-qimmat va shaxsiy hayotiga doir ma’lumotlarning daxlsizligi masalasi yanada qat’iylashtirildi. Anglashiladiki, konstitutsiyaning yangi tahriri shaxsiy huquq va erkinliklari borasida yanada takomillashtirildi:

“Insonning sha’ni va qadr-qimmat daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas” (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi).

Konstitutsiya matnida keltirilgan inson shaxsi va qadr-qimmatini daxlsizligi masalasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun mazmuniga ham singdirilishi, mohiyatan uni inkor qilmasligi lozim. Istisno holatlar bo‘lmasligi, bo‘lganda ham ularning chegaralari aniq ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Umuman, qonun matnida terminlar va boshqa jummalarning noaniq, tushunarsiz tarzda qo‘llash uning muayyan manfaatlarni ko‘zlab qasddan buzilishiga yoki noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib keladi.

Qayd etilganidek, qonun matnida qo‘llanadigan terminlar sodda bo‘lishi lozim. Muayyan sohaga doir qonunlarda murakkab terminlar ham qo‘llanishi tabiiy hol, albatta. Qonunlarning keng jamoatchilikka mo‘ljallanishi shu kabi terminlarni izohlashga ehtiyoj paydo qiladi. Masalan, 2016-yilda qabul qilingan “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunda “hayvonot dunyosi obyektlari” terminologik birikmasi keng jamoatchilik uchun birmuncha tushunarsiz bo‘lganligi sababli uning izohi keltirilgan: “sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchi hayvonlar, ham quruqlikda ham suvda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar, yovvoyi hayvonlardan tashkil topadigan tabiiy hayvon galalari yoki ularning har qanday to‘dalari” (<https://lex.uz/mact/-31719> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.01.2025).

Qonun tilining terminlarni mazmunan soddalashtirishi holati yuridik terminologiyada ham kuzatiladi. Masalan, diskriminatsiya va kamsitish leksemalari o‘zbek yuridik terminologiyasida sinonim sifatida qo‘llanadi. Huquqiy terminlarni jamlovchi lug‘atlarda har ikkala termin izohlanadi, va qonun hujjatlarida huquqiy tushuncha ifodalovchi leksema sifatida qo‘llanadi [8; 611]. *Diskriminatsiya* leksemasi baynalmilallik xususiyatiga ega bo‘lsa-da, o‘zbek jamoatchiligi uchun *kamsitish* kabi tushunarli emas. Shu sababli aynan *kamsitish* leksemasi qonun hujjatlarida faol qo‘llanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020)da shu termindan foydalanilgan. Qonunning 4-moddasida quyidagi jumlar keltirilgan: “Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar... ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik” (<https://lex.uz/docs/-5013007> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.01.2025).

Ma’lum bo‘ladiki, bir qonunchilikda, huquqiy-me’yoriy hujjatlarni shakllantirishda terminlarning xalq uchun tushunilishi oson bo‘lgan muqobillaridan foydalaniladi. Yuqorida keltirilgan parchada diskriminatsiya – kamsitish leksemalari orasida sinonimlik munosabati mavjudligi eng so‘nggi nashr etilgan sinonimlar lug‘ati (2022) da qayd etilmagan bo‘lsa-da, olti jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *diskriminatsiya* leksemasi uchun keltirilgan lug‘at maqolasi orqali buni dalillash mumkin: “Xalqaro va milliy munosabatlarda biror davlatning, yuridik yoki jismoniy shaxsning huquq va imtiyozlarini boshqalarga nisbatan cheklash, kamsitish”. Izohda *kamsitish* leksemasi *diskriminatsiya* so‘zini matnlarda almashtira oluvchi til birligi sifatida taqdim etiladi. Umuman, *diskriminatsiya* leksemasida terminologik ma’no kuchliroq ifodalangan (buni o‘zbek tilidagi izohli lug‘atlardagi ma’lumotlar ham dalillaydi). Ammo qonun hujjatlari tahlili “shaxs qadr-qimmatini yerga urish” ma’nosida ko‘proq “kamsitish” leksemasi qo‘llanilganligini ko‘rsatdi. Shu o‘rinda terminlarning qonun matnida tanlanishida ularning o‘z qatlamga mansubligi yoki nisbatan avvalroq o‘zlashtirilganligi har

doim ham asosiy omil bo‘lavermaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan “Talim to‘g‘risida”gi qonundan olingan parchada *prinsip* terminidan foydalanilgan. *Prinsip* leksemasi polifunksionallik xususiyatiga ega va bir nechta fan sohalarida terminologik birlik sifatida qo‘llanadi. Ammo aksariyat fan sohalarida *prinsip* o‘rnida *tamoyil* leksemasidan foydalaniladi. Leksemalardan ikkinchisi o‘zbek tiliga vaqt nuqtayi nazaridan oldin o‘zlashtirilgan. Shunday bo‘lsa ham, yuridik hujjatlar va qonun matnlarida *prinsip* leksemasidan ko‘proq foydalanidladi. Bu esa leksemaning yuridik terminlar tizimidagi “umrini uzaytirmoqda”, deyishimiz mumkin. Qonun tili, huquqiy-me‘yoriy hujjatlar matni va ularga qo‘yilgan talablar yuridik terminologiyaning shakllanishiga ta’sir o‘tkazishi shu kabi tahlillar vositasida dalillanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, qonun tilining o‘ziga xosligi unda ijtimoiy ochiq sistema bo‘lgan yurisprudensiyaning ochiq ijtimoiy xarakterdagi terminologiyasi ishtiroki bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-siyosiy terminlar faol qo‘llanishi bilan birga yuridik terminlarning qo‘llanishi qonun tilining qat’iyligi xususiyatini ifodalashga xizmat qiladi. O‘z navbatida, qonunchilik tili yuridik terminlarning ijtimoiy-siyosiy xususiyati ortishiga, ommalashuv jarayoniga, xalq tiliga singishiga sabab bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Aminov M. Davlat tilida ish yuritish: amaliy qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.18. – 528 b.
2. Боголюбов С.А. и другие. Язык закона. – Москва: Юридическая литература, 1990. – С.60-61. – 192 с.
3. Касимова М. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка: Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 156 с.; Каримова Л.А. Правовые и нравственные аспекты законов о языке: Дисс... канд. юрид. наук. – Ташкент, 1991. – 291 с.; Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 1996. – 209 б.; Фуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2004. – 216 б.; Хайитов Х. Қонун ижодкорлигида юридик лингвистиканинг ўрни ва аҳамияти: Юрид. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2011. – 206 б.; Саидов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Адолат, 1994. – 32 б.; Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик техникаси (тил, услуб, ҳуқуқий атамашунослик). – Тошкент: ЎЗР ИИБ Академияси, 1996.
4. Кўчимов Ш. Давлат тилида қонун ижодкорлиги фаолиятини янада такомиллаштиришнинг долзарб масалалари // “Davlat tilida qonun ijodkorligi: muammo va yechimlar” nomli II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2022. – B.6-13. – 184 b.
5. Кўчимов Ш. Қонун тили лингвистикаси. – Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2022. – Б.54. – 192 б.

6. Маланина Н.В. Язык закона как особый юридический язык // Ползуновский вестник. №3. 2006. – С.105-114.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 12 жилдлик. 10-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б.235.
8. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Тошкент: Адолат, 2009. – Б.611. – 704 б.
9. Хабибулина Н., Аннадурдыева Г. Особенности языка закона // Образование и право. 2023. №5. – С.107-111.